

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GEOLOGIYA VA MINERAL RESURSLAR QO'MITASI
TIZIMIDAGI GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Geologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyatga joriy etish, o'qitishning zamonaviy uslublaridan keng foydalanish, geologiya sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, shuningdek, geologiya sohasida ta'lif, ilm-fan va amaliyot o'rtaida uzviy bog'liqlikni yetarli darajada ta'minlash, yer haqidagi fanlar, shu jumladan ularning fundamental yo'nalishlari hamda amaliyot o'rtaida real integratsiyalashuv jarayoni uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (keyingi o'rinnarda — Davlat geologiya qo'mitasi) tizimidagi Geologiya fanlari universiteti (keyingi o'rinnarda — Universitet) geologiya sohasida ta'lif, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlovchi ilmiy klaster hamda malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublikaning tayanch olyi ta'lif muassasasi etib belgilansin.

2. Quyidagilar:

2022 — 2024-yillarda Geologiya fanlari universitetini rivojlantirish dasturi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Geologiya fanlari universiteti ixtisoslashgan kafedralari talabalarini amaliyot o'tash obyektlariga biriktirish jadvali [2-ilovaga](#) muvofiq;

Geologiya fanlari universiteti uchun xarid qilinadigan zamonaviy laboratoriya va texnologik uskunalar ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq;

Neft va gaz geologiyasi yo'nalishida amalga oshiriladigan maqsadli ilmiy loyihamalar ro'yxati [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

Universitetdagi o'quv jarayonining 70 foizi ilmiy-amaliy mashg'ulotlarga ajratiladi;

Universitetning ixtisoslashgan kafedralari talabalarining amaliyot o'tash jarayoni zarur shart-sharoitlar yaratilgan holda mazkur qarorning [2-ilovasida](#) nazarda tutilgan tashkilotlar bilan birgalikda olib boriladi;

yirik geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari va sanoat tashkilotlariga amaliyot o'tash uchun yuborilgan talabalarining yashash xarajatlari (ovqatlanish, yotoqxona) ushbu tashkilotlar hisobidan qoplanadi, bundan Toshkent shahrida va talaba doimiy yashaydigan tuman (shahar)da joylashgan tashkilotlar mustasno.

4. Davlat geologiya qo'mitasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi:

2022-yil 1-iyulga qadar Universitetning Kuzatuv kengashi qarori bilan sanoatda ahamiyati yuqori bo'lgan noyob va rangli metallarga boy bo'lgan istiqbolli maydonlarni aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib tasdiqlashni ta'minlasin;

2022 — 2024-yillarda Geologiya fanlari universitetini rivojlantirish dasturida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini qat'iy nazoratga olsin hamda samarali monitoringini yo'lga qo'yisin;

2022-yildan boshlab Universitet professor-o'qituvchilarining tizimli ravishda nufuzli xorijiy olyi ta'lif va ilmiy tashkilotlarda zamonaviy ta'lif usullari asosida malakasini oshirish choralarini ko'rsin;

2022-yil 1-sentabrga qadar Universitet faoliyatiga oid ilmiy-texnik jurnal chop etilishini yo'lga qo'yisin;

2022/2023 o'quv yilidan boshlab Universitet faoliyatida "Raqamli Universitet" tizimini bosqichma-bosqich joriy etsin;

2023-yildan boshlab ehtiyoj yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha Universitet tadqiqotchilari va ilmiy xodimlarini xorijiy yetakchi universitet va ilmiy tashkilotlarga ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun yuborishni yo'lga qo'ysin;

2023-yil 1-yanvardan boshlab Universitetda geologiya sohasi va konchilik sanoati muammolarini ilmiy asosda tahlil qilish, tahlil natijalarini xalqaro darajada amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar bilan integratsiya qilish va SsiVal platformasini keng joriy etish asosida ilmiy va innovatsion faoliyatni yo'lga qo'ysin;

2023/2024 o'quv yilidan boshlab Rossiya Federatsiyasi va boshqa xorijiy davlatlarning ilmiy tashkilotlari va yetakchi geologiya-qidiruv kompaniyalarida Universitet talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti o'tashini yo'lga qo'ysin.

5. Quyidagilar:

Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligi, Davlat geologiya qo'mitasi, Surxondaryo viloyati hokimligi bir oy muddatda Termiz davlat universitetining Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan 10,3 hektar yer maydonidan iborat Darband dala-o'quv poligonini hududning geologik tuzilishi, tog' jinslarining litologik va tuzilmaviy shart-sharoitlaridan maqsadli foydalanish uchun Universitetga doimiy foydalanish huquqi asosida;

Toshkent viloyati hokimligi bir oy muddatda Oqsoq-ota dala-o'quv poligonining g'arbiy qismidan 2,7 hektar yer maydonini Universitetga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratsin.

6. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda Universitet axborot-resurs markazining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron axborot-kutubxona resursiga barcha xizmat turlaridan bepul foydalanish huquqi asosida ulanishini ta'minlasin.

7. Davlat geologiya qo'mitasi:

Surxondaryo viloyatidagi Darband va Toshkent viloyatidagi Oqsoq-ota dala-o'quv poligonlarida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Universitet talabalarining o'quv amaliyotini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratish va tegishli hududlarni obodonlashtirish choralarini ko'rsin;

Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda 2022-yil yakuniga qadar Universitet huzurida akademik litsey tashkil etish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kirlitsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi raisi B.F. Islamov belgilansin.

Qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijob uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinnbosari J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har chorak yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 2-mart,
PQ-154-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 2-martdagি
PQ-154-son qaroriga
1-ILOVA

2022 — 2024-yillarda Geologiya fanlari universitetini rivojlantirish

DASTURI

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul ijrochilar |
|--|-----------------|---------------------------|--------------|----------------------------|-------------------|
| I. O'quv jarayonini takomillashtirish | | | | | |

| | | | | |
|---|---|--|--------------------------------|--|
| 1. Iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozori talablariga muvofiq holda o'quv yuklamalari hajmini optimallashtirish, kompetensiyaviy yondashuv ta'minlanganini nazarda tutuvchi yangi o'quv rejasi va fan dasturlarini yaratish. | <p>1. Universitet ta'lif yo'naliishlari bo'yicha o'quv rejasi va fan dasturlarini ishlab chiqish yuzasidan ishchi guruhlar tuzish.</p> <p>2. Ishlab chiqilgan o'quv rejasi va fan dasturlarida o'quv dasturlari hajmining 70 foizini amaliyotga asoslangan tartibda tasdiqlash.</p> <p>3. O'quv jarayoniga geologiya tarmog'i ilmiy-tadqiqot markazlarining yetuk mutaxassislarini jalb etish, ularning pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etish.</p> <p>4. Tasdiqlangan o'quv rejasi va fan dasturlarini o'quv jarayoniga joriy etish.</p> <p>5. Yangi o'quv rejasi joriy qilingan akademik guruhlarda, kafedralar yig'ilishlari, fakultet va Universitet kengashlarida buyurtmachi tashkilotlar, talabalar amaliyot o'tashini ta'minlagan tashkilotlar ishtirokida bitiruvchilar erishgan kasb malakalaridan kelib chiqib tanqidiy tahlil o'tkazish, o'quv rejasi va fan dasturlarini zamon talablari asosida takomillashtirish hamda o'quv jarayoniga joriy etish.</p> | <p>2022-yil mart</p> <p>2022-yil aprel</p> <p>2022/2023 o'quv yilidan</p> <p>2022/2023 o'quv yilidan</p> <p>2023/2024 o'quv yili yakuniga ko'ra</p> | <p>-</p> | <p>Geologiya fanlari universiteti (B. Islamov), Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (A. Toshkulov)</p> |
| 2. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti bilan xalqaro hamkorlik doirasida bakalavrlar tayyorlash. | <p>1. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti bilan hamkorlik doirasida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab faoliyat ko'rsatishi belgilangan 2+2 ikki diplomli qo'shma ta'lif dasturi uchun zarur o'quv-uslubiy va boshqa hujjatlarni tayyorlash.</p> <p>2. Ikki diplomli 2+2 qo'shma ta'lif dasturi, qabul kvatalari, qabul qoidalari, qabul muddatlari va boshqa zarur ma'lumotlar bilan respublika umumta'lif muassasalari bitiruvchi o'quvchilarini batafsil tanishtirish.</p> <p>3. Belgilangan tartibda iqtidorli yoshlarni tanlash va talabalikka qabul qilish.</p> <p>4. Talabalarni Rossiya Federatsiyasining geologiya tashkilotlarida amaliyot o'tashini tashkillashtirish.</p> <p>5. O'quv, ilmiy, tarbiya jarayonini muntazam monitoring qilish, Universitet ilmiy kengashida tahlil qilish, takomillashtirish yuzasidan aniq samarali choralar belgilash va amalga oshirish.</p> | <p>2022-yil mart</p> <p>2022-yil mart</p> <p>2022-yil may-iyun</p> <p>2023-yildan boshlab</p> <p>Muntazam ravishda (har o'quv yilida ikki marta)</p> | <p>To'lov-kontrakt asosida</p> | <p>Geologiya fanlari universiteti (B. Islamov)</p> |

| | | | | | |
|----|--|---|--|---|--|
| 3. | Universitetda kafedralar tizimini takomillashtirish. | <p>1. Tarmoq sohasidagi mutaxassislardan iborat ishchi guruh tashkil qilish.</p> <p>2. Ishchi guruh tomonidan universitetda, iqtisodiyot tarmoqlarida va hududlarda yangidan faoliyat ko'rsatishi zarur bo'lgan kafedralar va ularning filiallari ro'yxatini shakllantirish hamda asoslash.</p> <p>3. Kafedralar faoliyat ko'rsatishini boshlash muddatlarini belgilash.</p> <p>4. Kafedralarni belgilangan muddatlarda o'quv-uslubiy va boshqa hujjatlar bilan ta'minlash.</p> <p>5. Kafedralarda professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish hamda kafedralar faoliyatini to'laqonli yo'lga qo'yish.</p> | 2022-yil mart 2022-yil mart 2022/2023 o'quv yili 2022-yil iyun 2023-yil avgust | - | Geologiya fanlari universiteti (O. Qodirov), Davlat geologiya qo'mitasi (Sh. Alimov) |
|----|--|---|--|---|--|

II. Tashkilotlar bazasida amaliyotni tashkil etish

| | | | | | |
|----|--|--|--|---|---|
| 4. | Talabalarida amaliy va ishlab chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda ish beruvchi tashkilotlarning ishtirokini oshirish va mas'uliyatini belgilash. | <p>1. Universitet talabalarining amaliyotini tashkil etish bo'yicha amaliyot o'tash obyektlari — ish beruvchi tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.</p> <p>2. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etgan yetakchi tashkilotlar bilan talabalarining amaliyot o'tashi bo'yicha o'zaro hamkorlik shartnomalarini tuzishda, ish beruvchi tashkilotlarning talabalarda amaliy va ishlab chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha majburiyatlarini e'tiborga olish.</p> <p>3. Buyurtmachi tashkilotlar tomonidan muntazam "Bo'sh ish o'rnlari" yarmarkalarini o'tkazish.</p> | 2022-yil mart 2022-yil mart-aprel Yiliga 2-marta | - | Geologiya fanlari universiteti (B. Islamov), "Navoiy KMK" AJ (Q. Sanaqulov), "Olmaliq KMK" AJ (A. Xursanov), "Uzbekneftgaz" AJ (M. Abdullayev), Davlat geologiya qo'mitasi tizimidagi tashkilotlar rahbarlari |
| 5. | Talabalar amaliyoti biriktirilgan tashkilotlar bazasida samarali tashkil etilishini ta'minlash. | Talabalar amaliyotini tashkilotlar bazasida o'tkazish, amaliyotni zarur jihoz va texnikalar, transport voditalari, talabalar yashash sharoitlari bilan ta'minlash. | 2022/2023 o'quv yilidan boshlab | Amaliyotga biriktirilgan tashkilotlar mablag'lari doirasida | Amaliyotga biriktirilgan tashkilotlar rahbarlari |
| 6. | Iqtisodiyot tarmoqlari va respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari hamda talablariga muvofiq talabalarning sohaga intilish va qiziqishlarini rivojlantirish. | 1. Amaliyot o'tash dasturini tanqidiy tahlil qilish, takomillashtirish va o'quv jarayoniga joriy etish. | 2022-yil mart | Amaliyotga biriktirilgan tashkilotlar mablag'lari doirasida | Geologiya fanlari universiteti (B. Islamov), Amaliyotga biriktirilgan tashkilotlar rahbarlari |

| | | | | |
|--|--|--|--|--|
| | 2. Talabalar amaliyoti uchun mas'ul tashkilotlar tomonidan iqtidorli talabalarga istiqbolda o'z ish o'rinnarini topishda ko'maklashish maqsadida amaliyot davrida ularni mavsumiy ishlarga jalb qilgan holda keyinchalik ishga qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqish va yo'lga qo'yish. | 2022/2023 o'quv yilidan boshlab, muntazam ravishda | | |
|--|--|--|--|--|

III. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyani rivojlantirish

| | | | | | |
|----|--|--|--|--|--|
| 7. | Xalqaro (shu jumladan, hamkorlikdagi) ilmiy-tadqiqot grant loyihalarini amalga oshirish. | <p>1. Xorijiy davlatlar oliy ta'lim va ilmiy muassasalari bilan aloqalar o'rnatish, qo'shma konferensiylar, simpoziumlar, seminarlar tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishish.</p> <p>2. Xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish va ilmiy ishlarni tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash va dasturini tasdiqlash hamda o'z faoliyati yo'nalishidagi ishlarni tashkil etish.</p> <p>3. Sohaga ilg'or ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini joriy etish maqsadida Geologiya fanlari universiteti va Janubiy Koreyaning tajribaga ega ixtisoslashgan kompaniyalari bilan hamkorlikni amalga oshirish hamda ushbu ishlarga Toshkent shahridagi Italiyaning Piza universiteti filialini jalb qilish.</p> <p>4. Barcha ilmiy-tadqiqot ishlari, loyihalar va grantlarning bajarilishini tizimli monitoring qilish.</p> | <p>Har yili 20-sentabrga qadar</p> <p>Har yili 30-sentabrga qadar</p> <p>2022-yil mart</p> <p>Har chorakda</p> | <p>Innovatsion rivojlanish vazirligi, xalqaro grantlar va xorijiy hamkorlarning mablag'lari</p> | <p>Davlat geologiya qo'mitasi (A. Qodirxo'jayev), Geologiya fanlari universiteti (M. Isoqov)</p> |
| 8. | Respublika mineral xomashyo bazasini kengaytirishga qaratilgan davlat ilmiy dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalarini amalga oshirish. | <p>1. Geologiya fanlariga oid muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish uchun takliflarni (mavzu loyihasini) shakllantirish.</p> <p>2. Ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish.</p> <p>3. Tanlov natijalariga ko'ra loyihalarни moliyalashtirish.</p> | <p>Har yili oktyabr oyida</p> <p>Har yili noyabr oyida</p> <p>Har yili fevral oyidan boshlab</p> | <p>Davlat ilmiy dasturiga ajratilgan mablag'lar (A. Abduraxmonov), Davlat geologiya qo'mitasi (A. Qodirxo'jayev), Geologiya fanlari universiteti</p> | |

(M. Isoqov)

| | | | | | |
|----|------------------------------------|--|---------------------|-------------------|----------------------------|
| 9. | Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy | 1. Geologiya fanlari universiteti negizida geologiya, mineralogiya, tog' | Har yili iyun oyida | Geologiya fanlari | Davlat geologiya qo'mitasi |
|----|------------------------------------|--|---------------------|-------------------|----------------------------|